

**XORIJIY DAVLATLAR KUCH TUZILMALARINING TABIIY VA
TEKNOGEN TUSDAGI FAVQULOTDA VAZIYTLARDA VA ULAR
YUZA GA KELISH EHTIMOLI BOR ZONALARDA EVAKUACIYA QILISH
B'YIICHA CHORA-TADBIRLAR.**

Rasulov Orifjon Abidjanovich

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi

universiteti magistraturasi tinglovchisi

Annotatsiya: Butun dunyoni tashvishga soluvchi tabiiy va texnoger tUSDagi favqulotda holatlarda zarar miqdorini va qurbonlar sonini kamaytirish kabi muhim va dolzarb masalaga yechim topish dunyo olimlarini birinchi orindagi vazifalaridan biri bo'lip turirdi. Shu boyisdan biz ham o'z maqolamizda yurtimizga keltirilishi mumkin bo'lgan innovatsilarni ba'zilar haqida qisqacha malumot berip, bunday ofatlar payitida harakatlanuvchi horijiy davlatlar kuch tuzilmalari bajargan ishlari haqida gapirip o'tamiz.

Kalit so'zlar: Sardoba, toshqin, tornado, tsunami, A.Q.Sh, Yaponiya, Chernobil.

O'zbekiston deb atalmish katta va inoq oilaning har bir a'zosi tinch va farovon hayot kechirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish yo'lida tinimsiz izlanyapmiz.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning
2023 yil uchun Murojaatnomasidan.**

Darxaqiqat Yurtboshimizning yuqorida keltirilgan so'zlari naqadar o'rinli ekanligiga o'tgan yillar davomida bir necha marotaba guvoh bo'ldik. Yurtimiz xududi Sirdaryo viloyati Sardobada yuz bergan texnogen tUSDagi favqulotda vaziyat ham, halqimizning naqadar sergak va hamjihat ekanligini yana bir bor isbotladi. Bunday deyishimizga sabab esa davlat muassasalari tomonidan, xavfli xududda yashovchi aholini o'z vaqtida ogohlantirib evakuvatsiya qilgani, shu bilan birga talofat ko'rgan xududlar sonini kamaytirishga qilinigan sayi xarakatlar o'z natijasini ko'rsatdi. Undan tashqari ushbu ofatdan jabir ko'rganlarga yurtimizning boshqa viloyatlari aholisi ko'rsatgan g'amxo'rlik va yordamlarini ham aytib o'tishimiz lozim. Bu holat bo'yicha quyida batafsilroq malumotlar berib o'tdik.

Voqealar xronologiyasi:

1 may kuni butun O'zbekiston uchun tashvishli xabar bilan boshlandi. Shu kuni soat 05:55da Sirdaryo viloyatida joylashgan Sardoba suv ombori dambasining 6 piket

devorida suv chiqa boshladi. Oqibatda, bir qancha aholi punktlariga kuchli oqimda suv yopirilib [kira boshladi](#).

Shundan so‘ng, voqea joyiga O‘zbekiston Hukumati rahbari Abdulla Aripov, shuningdek, Favqulodda vaziyatlar, Ichki ishlar boshqarmalari, Milliy gvardiya va boshqa tegishli tashkilotlar rahbarlari yetib keldi. Evakuatsiya tadbirlarini tashkillashtirish, favqulodda vaziyat oqibatlarini bartaraf etish bo‘yicha ishlar [muvofiqlashtirildi\[1\]](#). Mazkur tadbirlarga Sirdaryo viloyati FVBdan 430 shaxsiy tarkib va 5 avtotexnika, Jizzax viloyati FVBdan 120 shaxsiy tarkib, 6 ta avtotexnika, MVBQRQdan 60 shaxsiy tarkib, 6 ta avtotexnika, MGdan 276 shaxsiy tarkib, 43 avtotexnika hamda xududiy FVDT xizmatlari jalb etildi[2]. Kunning birinchi yarmiga qadar Sardoba tumani “Qo‘rg‘ontepa” MFY suv omborining atrofidagi Qo‘rg‘ontepa, “Do‘stlik”, “Yurtdosh” MFYlardan jami 11 598 nafar aholi evakuatsiya qilindi. Tushdan so‘ng, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Sirdaryo viloyatining suv ombori yorilgan Sardoba tumaniga zudlik bilan yetib bordi. Davlat rahbari Sardoba tumani [aholisi bilan uchrashdi](#).

Soat 16:00 lar atrofida Favqulodda vaziyatlar vazirligi dambadan suv chiqishi kamaygani, suv oqimlari Oqoltin tumani xududidan o‘tuvchi Abay kanaliga tushirilib, Jizzax viloyatidagi Arnasoy ko‘liga yo‘naltirilgani haqida [xabar berdi](#).

Toshqindan jabr ko‘rgan aholi viloyatning Do‘stlik, Paxtakor, Zarbdor va Mirzacho‘l tumanlaridagimaktab, kollej, xususiy korxonalar va aholi xonadonlariga joylashtirildi. Bundan tashqari, Mirzaobod tumanidagi “Navbahor”, “Haqiqat” va “Bahoriston” MFYlarda yashovchi odamlar ushbu tumandagi kasb-hunar kolleji, Safarbarlik chaqiruv rezervi bo‘yicha harbiy qism va shifoxonaga evakuatsiya qilindi[1].

Yuqorida eslab o‘tilgan holat xudud aholisi ruhiyatiga, jamiyat va davlat byujetiga katta zarar yetkazish bilan birgalikda fikrimizcha tizimdagi bazi bir hato va kamchiliklarni ko‘rsatib berdi, bu haqida maqolamiz davomida albatta batafsolroq gapirib o‘tamiz.(ohirida akam aytganlarini hulosa qilaman vertalyot haqida)

Bunday muthish voqealar afsuski butun dunyo bo‘ylab ko‘plab uchraydi.

2023 yil 24mart kuni Amerika Qo‘shma Shtatlarida juda yomon ob-havo sharoiti tufayli yuzaga kelgan bir nechta kuchli tornado tabiiy ofatlari natijasida Missisipi shtatining Rolling Fork, Midnight va Silver City shaxarlari qattiq jabirlangan va insonlar hayotiga zomin bo‘lgan. Osha yilning 25 mart kuni hukm surgan jimlikdan so‘ng 26-27 mart kunlari yana bo‘ron ko‘tarilgan. Umumiy hisobda to‘rt kun ichida 33ta to‘rnado kuzatilgan va ularning eng yuqori ko‘rsatkichi EF-4 gacha chiqqan. Voqea sababli Missisipi shtatining Sharkey, Humphreys, Carroll, va Monroe tumanlarida favqulotda holat e‘lon qilingan va Amory tumanida 20:00dan 6:00gacha qo‘mondonlik soati elon qilingan[3]. Missisipi gubernatori Teyt Rivz AQSh prezidenti Jo Bayden bilan suhbatlashdi. Davlat rahbari [federal hukumat](#) tomonidan to‘liq qo‘llab

- quvvatlashni taklif qildi. Qutqaruv ishlarida yordam berish uchun favqulodda vaziyatlar xodimlari va resurslari mintaqaga yuborildi[4]. Umumiy hisobda tabiiy ofatdan jabr ko‘rganlar soni (24-27 mart 2023yil holati bo‘yicha) 236, jarohatlanganlar 24 va qurbonlar soni 23(+2 tabiiy ofat bilan bog‘lik bo‘lmagan) tashkil qiladi[5].

11 mart 2011 Yaponiya- mahalliy vaqt bilan 14:46da Senday shaxridan 130km sharqda yuzaga kelgan 9,0-9,1 magnitudali yer silkinishi oqibatida balandligi 40,5m gacha bo‘lgan sunami yuzaga keldi. Buning oqibatida 19 747 kishi hayotdan ko‘z yumdi, jarohatlanganlar 6 242 va izaiz yo‘qolganlar soni 2 556 kishini[6], moddiy zarar esa 309mlrd A.Q.Sh dollarini tashkil qiladi. [Yaponiya tashqi ishlar vazirligi](#) ma'lumotlariga ko'ra, 15 mart kuni mamlakatni qo'llab-quvvatlashni taklif qilgan mamlakatlar va mintaqalar soni 102 taga, xalqaro tashkilotlar soni esa 14 taga yetdi. Eng ko'p qutqaruv brigadalari yuborgan davlatlar [Rossiya](#), [Avstraliya](#), [AQSh](#), [yangi Zelandiya](#), Buyuk [Britaniya](#), [Janubiy Koreya](#) va [Xitoy](#). Yaponiya aholisiga yordam berish operatsiyalarida Amerika harbiylari ham ishtirok etmoqda. Xususan, AQSh harbiy qo'mondonligi "[Ronald Reygan](#)" aviatahuvchisiga tabiiy ofatdan zarar ko‘rgan xududlarda ish olib boruvchi qutqaruv vertolyotlari qonishiga ruhsat berdi[7].

Bunga oxshash tabiiy ofatlar tarixda juda ko‘p uchraydi, ammo insonlar nafaq tabiiy ofat, balki texnogen ofatlardan ham katta zarar ko‘rishlari hech kimga sir emas va bunday hodisalar ham tarixda ham ko'plab uchraydi, masalan:

Tarixda kuzatilgan eng katta texnogen ofatlaridan biri Sobiq Sovet Ittifoqi davrida hozirgi Ukraina xududidagi Pripyet shaxri yaqinida joylashgan “Chernobil atom elektro stansiyasi”dagi mutxish falokat hozirgacha o‘z izini yo‘qotmagan. 1986 yil 25dan 26 aprelga o‘tar kechasi to‘rtinchi blo‘k reaktoridagi nosozlik tufayli yuzaga kelgan portlash oqibatida atrofga katta miqdordagi “radiofaol” moddalar tarqagan. “AES”dan 30km radiusda bo‘lgan barcha aholi evakuatsiya qilingan.

Evakuatsiya qilinganlar- 115ming kishi

Qurbon bo‘lganlar- baxtsiz hodisa bilan bevosita bog'liq bo'lgan sabablardan 50 kishi, nurlanishning uzoq muddatli ta'siridan 4000 gacha (shu jumladan,taxmin qilingan o'limlar)[8].

Avariya oqibatlarini bartaraf etishda ishtirok etgan- 600ming atrofida, undan tashqari o‘t o‘chiruvchi mashinalar, vertolyotlar va tibbiy taxnikalar ish olib borgan.

Havoga chiqarilayotgan “radiofaol” moddalarni sonini qisqartirish, raektorni sovutish va qayta alanga olmasligini ta'minlash maqsadida akademik V.A.Legasov tomonidan ishlab chiqilgan aralashmani ([Boros o'z ichiga olgan](#) moddalar, [qo'rg'oshin](#) va [dolomitlar](#)dan tashkil topgan) sepushgan. Birinchi o'n kunlikda aviatsiya general-mayori [N. T. Antoshkin](#) shaxsiy tarkibning aralashmani vertolyotlardan tashlash xarakterlarini bevosita boshqargan. 27 apreldan 6 maygacha vertolyotlar reaktorga 1927 marta uchib, unga 4925 tonna qum, loy, dolomit

parchalari, [bor karbid](#) va qo'rg'oshin to'kishgan. Yong'in 1 may kuni soat 11 da o'chirildi. Shu bilan birga, vertolyot uchuvchilari va qolgan ishtirokchilar katta dozalarda nurlanish olishdi[9]. Keyin vayron bo'lgan reaktorni tozalash va ko'mish ishlari boshlandi. 4-blok atrofida betondan "[sarkofag](#)"(ob'ekt "boshpana" deb ataladi) qurildi. Stansiyaning 1, 2 va 3 bloklarini ishga tushirish to'g'risida qaror qabul qilinganligi sababli, AES xududida va mashina zali tomida tarqalgan radioaktiv chiqindilar sarkofag ichiga olib tashlangan yoki betonlangan. Birinchi uchta energiya bloklari xonalari zararsizlantirilgan. Sarkofag qurilishi iyul oyida boshlanib 1986 yil noyabr oyida tugallangan. 1986 yil 2 oktyabrda to'rtinchi energiya bloki yonida qurilish ishlarini bajarayotganda, mashina zalidan uch metr uzoqlikda, ko'tarish kranining arqoniga ilashib qolishi natijasida, Mi-8 vertolyoti halokatga uchrashi oqibatida, vertolyot ichida bo'lgan 4 nafar ekipaj halok bo'ldi[10].

Xulosa va takliflar:

Bunday tabiiy va texnogen ofatlar yaqinlashib kelayotgan vaqtda halqni o'z vaqtida ogohlantirish, evakuatsiya qilish va muhtojlarga kerakli yordamni ko'rsatish juda muhim vazifa bo'lib, uni bajarish uchun esa kerakli texnika va texnologiyalar soni va sifati yetarli bolishi lozim. Misol uchun Fransiyada tabiiy va texnogen ofatlar vaqtida halqni ogohlantirish, butun Fransiya bo'ylab joylashtirilgan havo xavfi sirenalari yordamida amalga oshiriladi, bunga sabab ofat sodir bo'lishidan oldin hamma ham radio yoki televideniya dan malumot olish imkoniyatiga ega bo'lmasligi mumkin, politsiya va o't ochiruvchilar yordamida ogohlantirishga esa ko'p vaqt sarflanadi, shunday ekan eng maqbuli sifatida havo xavfi sirenalaridan foydalanish deb tanlangan. Yurtimizda ham shunga o'xshash texnologiyalarni joriy etishimiz, kelajakda halqimizni kelayotgan xavfdan ertaroq ogohlantirib keltirilishi, mumkin bo'lgan zarar miqdorini kamaytirilishiga erishishimiz mumkinligi takidlaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sarvar Rahimov. qalamir.uz saytiga bergan maqolasidan 2 may 2020yil
2. Sunnatilla Abdullayev. qlampir.uz saytiga bergan maolasidan. 1 may 2020 yil
3. "[Gov. Reeves issues State of Emergency following deadly storms](#)". WLBT. 2023-03-25. [Архивировано](#) из оригинала 25 марта 2023. Дата обращения: 25 марта 2023.
4. Marina Sovina lenta.ru saytidagi 26mart 2023yilgi maqolasidan
5. [https://ru.wikipedia.org/wiki/Серия_торнадо_на_юге_долины_Миссисипи_\(2023\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/Серия_торнадо_на_юге_долины_Миссисипи_(2023))
6. <https://www.nippon.com/ru/japan-data/h01282/>
7. [https://ru.wikipedia.org/wiki/Землетрясение_в_Японии_\(2011\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/Землетрясение_в_Японии_(2011))
8. http://www.ibrae.ac.ru/russian/chernobyl-3d/society/III_5_4.htm
9. Nikolay Kachuk 24 aprel 2021 yil sb.by jurnalida nashr etilgan maqolasidan.
10. https://ru.wikipedia.org/wiki/Авария_на_Чернобыльской_АЭС#Информирование_и_эвакуация_населения